

AKSIONERLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMI

Esanov Oybek Ulug‘bekovich

Buxoro Osiyo Xalqaro Universiteti

Iqtisodiyot va Pedagogika yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining nazariy-huquqiy asoslari, uning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Korporativ boshqaruvning mazmun-mohiyati, asosiy tamoyillari hamda korporativ munosabatlar ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asoslar, korporativ boshqaruv kodeksining ahamiyati va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyati, aksiyadorlar huquqlari, korporativ munosabatlar, korporativ boshqaruv kodeksi, investitsion jozibadorlik, menejment, korporativ huquq, korporativ nazorat, iqtisodiy rivojlanish.

Kirish. Korporativ boshqaruv tushunchasining tahlili shuni ko‘rsatadiki, uning asosida boshqaruv jarayoni bilan korporatsiya tushunchasining uzviy bog‘liqligi yotadi. Korporativ boshqaruvning mazmun-mohiyatini to‘liq anglash uchun, avvalo, korporatsiya tushunchasining huquqiy va tashkiliy asoslarini ko‘rib chiqish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, korporatsiya deganda, odatda, ishtirokchilar yoki aksiyadorlarning umumiy manfaatlarini amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan va ular tomonidan boshqariladigan yuridik shaxs tushuniladi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari korporativ tuzilmaning eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Bunday jamiyatlarda aksiyadorlar korxonada ustav kapitalidagi ulushlariga muvofiq boshqaruv jarayonlarida ishtirok etish, foydadan dividend olish hamda jamiyat faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish huquqiga ega bo‘ladilar.

Asosiy qism. Korporatsiyaning asosiy belgilaridan biri uning ishtirokchilik tamoyiliga asoslanishidir. Ishtirokchilik yoki a‘zolik korporatsiya va uning ta‘sischilari, aksiyadorlari o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarni ifodalaydi. Ushbu munosabatlar orqali

ishtirokchilar korporatsiya faoliyatini boshqarishda qatnashadi, muhim qarorlarni qabul qilishda ovoz beradi hamda o‘z manfaatlarini himoya qiladi.

Shu jihatdan, korporativ boshqaruv tizimi aksiyadorlar, kuzatuv kengashi, ijroiya organlari va boshqa manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi munosabatlarni samarali tashkil etishga qaratilgan boshqaruv mexanizmi hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish, boshqaruvning shaffofligi va hisobdorligini ta‘minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish hamda aksiyadorlik jamiyatining uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qilishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, mamlakatda zamonaviy va samarali korporativ boshqaruv tizimini shakllantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimining ahamiyati

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, xususiy mulk daxlsizligini ta‘minlash hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan iqtisodiy islohotlar dasturlarida davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, xususiy sektor mavqeini mustahkamlash va zamonaviy korporativ boshqaruv mexanizmlarini joriy etishga alohida e‘tibor qaratilgan. Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv tizimini takomillashtirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Korporativ boshqaruvning mazmun-mohiyatini chuqur anglash uning nazariy asoslarini o‘rganishni, shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatgan ilmiy qarashlar va konsepsiyalarni tahlil qilishni talab etadi. Zamonaviy iqtisodiy munosabatlar sharoitida korporativ boshqaruv nafaqat korxonalar faoliyatini muvofiqlashtirish vositasi, balki investorlar manfaatlarini himoya qilish, biznesning shaffofligini ta‘minlash va uzoq muddatli rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarning asosiy tayanchi yirik korporativ tuzilmalar hisoblanadi. Aynan korporatsiyalar sanoat ishlab chiqarishining katta qismini amalga oshiradi, innovatsion faoliyatni rag‘batlantiradi va

milliy iqtisodiyotning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini belgilaydi. Masalan, AQShda yirik korporatsiyalar son jihatidan sanoat korxonalarining nisbatan kichik qismini tashkil etsa-da, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning asosiy ulushi aynan ular hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli ko‘plab iqtisodchi olimlar, jumladan John Kenneth Galbraith, yirik korporatsiyalarni zamonaviy sanoat tizimining tayanch elementi sifatida baholaganlar.

Korporatsiyalarning rivojlanishi iqtisodiy taraqqiyotning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Yirik korporativ tuzilmalar ishlab chiqarish resurslarini samarali birlashtirish, kapitalni markazlashtirish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bundan tashqari, ular davlatning iqtisodiy modernizatsiya siyosatini amalga oshirishda strategik hamkor vazifasini bajaradi. Korporatsiyalarning iqtisodiyotdagi o‘rni ularning ishlab chiqarish hajmi, investitsion salohiyati, bandlikni ta‘minlashdagi hissasi hamda mamlakat yalpi ichki mahsulotini shakllantirishdagi ulushi bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish masalalari Fuqarolik kodeksi, Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi Qonun, Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi Qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarining ustavlari, ichki nizomlari va korporativ boshqaruv kodekslari ham ushbu munosabatlarni tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korporativ munosabatlarning samaradorligi barcha manfaatdor tomonlarning huquq va manfaatlarini muvozanatlashtirishga bog‘liq. Bunda aksiyadorlar, kuzatuv kengashi a‘zolari, ijro organlari, investorlar va boshqa manfaatdor subyektlarning manfaatlarini uyg‘unlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Korporatsiya mustaqil yuridik shaxs sifatida o‘z maqsad va vazifalariga ega bo‘lib, uning manfaatlari ayrim ishtirokchilarning shaxsiy manfaatlari bilan har doim ham to‘liq mos kelmasligi mumkin. Shu sababli korporativ boshqaruv tizimi manfaatlar muvozanatini ta‘minlashga xizmat qilishi lozim.

Korporativ boshqaruv tizimining me‘yoriy asoslari bir necha tarkibiy qismlardan iborat. Birinchidan, davlat tomonidan qabul qilinadigan qonunlar, farmonlar va boshqa

normativ-huquqiy hujjatlar korporativ faoliyatning umumiy qoidalarini belgilaydi. Ikkinchidan, aksiyadorlik jamiyatlarining ichki hujjatlari, korporativ boshqaruv kodekslari va etik standartlari korxonada ichidagi munosabatlarni tartibga soladi. Uchinchidan, turli xo'jalik subyektlari o'rtasida tuziladigan shartnomalar korporativ faoliyatning tashkiliy-huquqiy asoslarini mustahkamlaydi. To'rtinchidan, ishbilarmonlik madaniyati, biznes etikasi va korporativ an'analar ham korporativ boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Korporativ huquq esa korporatsiya faoliyatini tartibga soluvchi ichki qoidalar va me'yorlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu me'yorlar tashkilotning boshqaruv tizimini, ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini, qarorlar qabul qilish tartibini hamda korporativ nizolarni hal etish mexanizmlarini belgilaydi. Natijada korporativ huquq korxonaning barqaror faoliyat yuritishi, manfaatdor tomonlar o'rtasida ishonch muhitini yaratish va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Korporativ boshqaruv kodeksi korporatsiya faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi tamoyillar, standartlar va ichki me'yorlar majmui hisoblanadi. Mazkur kodeks korporativ munosabatlarni tartibga solish, boshqaruv organlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash hamda aksiyadorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Unda korporativ boshqaruvning asosiy prinsiplari, tavsiyalari va amaliy mexanizmlari o'z ifodasini topadi. Kodeks qoidalariga rioya etish kompaniyaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, investorlar ishonchini mustahkamlash va kapital bozorlaridan moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Har bir mamlakatda korporativ boshqaruv tizimi uning iqtisodiy rivojlanish darajasi, huquqiy muhiti, biznes madaniyati va milliy an'analaridan kelib chiqib shakllanadi. Shu sababli korporativ boshqaruv modellari davlatlar kesimida ma'lum farqlarga ega bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, boshqaruv samaradorligini oshirish va korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlashdan iboratdir. Korporativ boshqaruvning rivojlanganlik darajasi, avvalo, aksiyadorlar huquqlarining kafolatlanganligi, korporativ nazorat tizimining samaradorligi va aksiyadorlik jamiyatlarining institutsional rivojlanishi bilan belgilanadi.

Xulosa. Korporativ boshqaruv tizimining shakllanishi va rivojlanishi zamonaviy iqtisodiyot taraqqiyotining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Boshqaruv jarayonlarining murakkablashuvi, aksiyadorlar sonining ortishi hamda yirik korporativ tuzilmalarning vujudga kelishi korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirdi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari, xolding kompaniyalari va moliya-sanoat guruhlarining rivojlanishi boshqaruvning yangi usullarini joriy etishni talab etdi.

Aksiyadorlik jamiyatlari yuridik shaxs sifatida tashkil etilishi yoki qayta tashkil etilishi mumkin bo‘lib, ularning faoliyati qonunchilik asosida tartibga solinadi. Jamiyatni tashkil etish, ustavni tasdiqlash va ustav kapitalini shakllantirish bilan bog‘liq qarorlar muassislar tomonidan belgilangan tartibda qabul qilinadi. Bunday jarayonlar korporativ boshqaruvning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishi natijasida investitsiya fondlari, pensiya jamg‘armalari, sug‘urta kompaniyalari kabi yirik institutsional investorlarning paydo bo‘lishi korporativ boshqaruv tizimida yangi bosqichni boshlab berdi. Natijada korxonalarni professional menejerlar orqali boshqarish amaliyoti keng tarqaldi. Shu bilan birga, korxonada xodimlari, kreditorlar, mahalliy hokimiyat organlari va boshqa manfaatdor tomonlarning ham korporativ qarorlar qabul qilish jarayonidagi o‘rni ortib bormoqda.

Korporativ boshqaruvning asosiy vazifasi aksiyadorlar, menejerlar, investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar manfaatlari o‘rtasida muvozanatni ta’minlashdan iborat. Zamonaviy korporatsiyalarda aksiyadorlar o‘z mablag‘larini kompaniya faoliyatiga yo‘naltiradi va investitsion xavflarni zimmasiga oladi, biroq kundalik boshqaruv funksiyalarini bevosita amalga oshirmaydi. Ushbu vakolatlar professional menejerlarga topshiriladi. Shu sababli korporativ boshqaruv tizimi mulkdorlar va boshqaruvchilar o‘rtasidagi manfaatlar uyg‘unligini ta’minlovchi samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Korporativ boshqaruvning institutsional asoslari davlat organlari, sud tizimi, fond bozori institutlari va ishbilarmonlik muhitida shakllangan huquqiy me’yorlar hamda biznes standartlariga tayanadi. Ushbu me’yorlar korporatsiyaning huquqiy maqomini, boshqaruv

organlari vakolatlarini va korporativ munosabatlar ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tartibga soladi.

Umuman olganda, korporativ boshqaruv tizimi kompaniya egalari, boshqaruv organlari va boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni samarali tashkil etishga qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlar majmuasidir. Uning asosiy maqsadi korxonada faoliyati samaradorligini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish, aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashdan iborat.

Korxonalar faoliyati samaradorligini yanada oshirish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, asosiy vositalarni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv organlarining mas'uliyatini kuchaytirish, ustav kapitalini oshirish, qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish, dividend siyosatini takomillashtirish hamda aksiyadorlar, kuzatuv kengashi va ijroiya organlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish korporativ boshqaruvning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Natijada korxonalarning raqobatbardoshligi ortadi, investorlar ishonchi mustahkamlanadi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi zamonaviy korporativ boshqaruv tizimi shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Umarxodjaeva M.G'., Ismailov A.R. "Korporativ boshqaruv-2" O'quv qo'llanma. - TDIU, 2019. – 218 bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Qonuni №233-I "Aktsiyadorlik jamiyatlari va aktsiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida (yangi tahriri)", 1996 yil 26 aprel. Yangi tahriri O'RQ-370 son bilan 2014 yil 06 mayda tasdiqlangan.
3. Bob Tricker – Corporate Governance, Principles, Policies and Practices, 3rd edition, Oxford online resources center, 2012 – 904pp
4. O'rmonov N.T., Ismailov A.R. "Korporativ boshqaruv: prinsiplar, siyosat va amaliyot". O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodmoliya, 2019. – 254 bet.

5. Tashxodjaev M.M., Umarxodjaeva M.G., Shermuxamedov A.K., Kayumova M.Sh. “Korporativ madaniyat” O‘quv qo‘llanma. - TDIU, 2021. -169 b.
6. Elmirzaev S. Korporativ boshqaruv. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. – 415 bet.